

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi akademik F.N Rusanov nomidagi Toshkent “Botanika bog'i”ga tashrif

Bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida Gidromelioratsiya fakulteti “Suv ta'minoti muhandislik tizimlari” ta'lim yo'nalishi 106- guruh talabarlari guruh murabbiyi G.T. Axmedjanova rahbarligida Toshkent “Botanika bog'i”ga tashrif buyurdilar. Botanika bog'i respublika miqyosida o'simliklarni introduksiya qilish (ilgari o'stirilmagan yangi o'simliklarni o'stirish, iqlimlashtirish va ulardan xo'jalikda foydalanish) masalasini o'rganish va ishlab chiqish ilmiy markazi hisoblanadi. Hozirgi kunda u yerda 2 mingdan ortiq o'simlik kolleksiyalari mavjud bo'lib, bu o'simliklar Osiyo va Yevropa mamlakatlari, Kavkaz, Uzoq Sharq o'lkalaridan, Shimoliy Amerika, Xitoy va O'rta dengiz bo'yidagi mamlakatlardan keltirilgan. Tashrif mobaynida talabalar “Botanika bog'i”dagi daraxtlar va o'simliklarni ko'rib o'zlariga kerakli ma'lumotlarni oldilar va toza havodan baxramand bo'ldilar.



TIQXMMI matbuot xizmati